Kalit so'zlar: raqamli marketing, iste'molchi xulq-atvori, onlayn xarid qilish, ijtimoiy media, mobil marketing, elektron tijorat, SEO (qidiruv tizimini optimallashtirish), sun'iy intellekt, marketing strategiyasi, raqamli transformatsiya.

Abstract: This research paper examines the influence of digital marketing on consumer behavior, particularly in the processes of information search, evaluation, purchasing, and interaction with brands. The paper analyzes the impact of digital marketing using both quantitative and qualitative methods, including website analytics, social media data, and survey results. The findings indicate that digital marketing significantly affects consumer decision-making, with online reviews, social media, and mobile marketing playing critical roles. Furthermore, the paper explores ethical considerations such as the use of personal data and manipulation in advertising. The study provides practical recommendations for businesses to improve digital marketing strategies, enhance communication with consumers, and gain competitive advantage. Suggestions for future research directions are also presented, including the impact of artificial intelligence on consumer behavior and the application of digital marketing across different cultural contexts.

Key words: digital marketing, consumer behavior, online shopping, social media, mobile marketing, e-commerce, SEO (search engine optimization), artificial intelligence, marketing strategy, digital transformation.

Аннотация: Данная научная статья посвящена изучению влияния цифрового маркетинга на поведение потребителей, в частности на процессы поиска информации, её оценки, покупки и взаимодействия с брендом. В статье анализируется влияние цифрового маркетинга с применением количественных и качественных методов, включая веб-аналитику, данные социальных сетей и результаты опросов. Результаты исследования показывают, что цифровой маркетинг оказывает значительное влияние на процесс принятия решений потребителями, при этом важную роль играют онлайн-отзывы, социальные сети и мобильный маркетинг. Кроме того, в статье рассматриваются этические аспекты цифрового маркетинга, использование персональных данных и вопросы манипуляции в рекламе. Итоги исследования предлагают практические рекомендации для бизнеса по совершенствованию стратегий цифрового маркетинга, более эффективному взаимодействию с потребителями и достижению конкурентных преимуществ. Также предложены направления будущих исследований, в том числе влияние искусственного интеллекта на поведение потребителей и применение цифрового маркетинга в разных культурах.

Ключевые слова: цифровой маркетинг, поведение потребителей, онлайн-покупки, социальные сети, мобильный маркетинг, электронная коммерция, SEO (поисковая оптимизация), искусственный интеллект, маркетинговая стратегия, цифровая трансформация.



KIRISH

XXI asrda texnologiyaning jadal rivojlanishi va internetning keng tarqalishi marketing sohasida inqilobiy o'zgarishlarga olib keldi. Raqamli marketing an'anaviy marketing usullarini butunlay yangi bosqichga ko'tardi, iste'molchilar bilan o'zaro aloqalarni sezilarli darajada o'zgartirdi va ularning xarid qilish odatlariga kuchli ta'sir ko'rsata boshladi. Raqamli platformalar, ijtimoiy media, mobil qurilmalar va elektron tijoratning ommalashuvi bizneslar uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Shu bilan birga, iste'molchilarning qaror qabul qilish jarayonini tubdan o'zgartirdi.

MAVZUNING DOLZARBLIGI

Bugungi kunda iste'molchilar mahsulot va xizmatlar haqida ma'lumot izlash, ularni baholash, xarid qilish va brendlar bilan aloqa qilishda ko'proq raqamli kanallarga murojaat qilmoqdalar. Onlayn sharhlar, ijtimoiy media postlari va mobil reklamalar iste'molchilarning xarid qilish niyati, brendga bo'lgan munosabati va umumiy xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, raqamli marketingning iste'molchi xulq-atvoriga ta'sirini chuqur tushunish har qanday biznes uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo bo'ylab milliardlab odamlar internetdan foydalanmoqda va bu raqam doimiy ravishda ortib bormoqda. O'zbekistonda ham internet foydalanuvchilari soni yildan-yilga ko'paymoqda, bu esa raqamli marketingning ahamiyatini oshiradi. Smartfonlar va planshetlar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Iste'molchilar internetga, ijtimoiy media platformalariga va onlayn xaridlarga mobil qurilmalar orqali kirishmoqda. Sun'iy intellekt (AI), kengaytirilgan reallik (AR), virtual reallik (VR) va blokcheyn kabi yangi texnologiyalar raqamli marketing imkoniyatlarini kengaytirmoqda va iste'molchi xulq-atvoriga ta'sirini kuchaytirmoqda.

Iste'molchilar mahsulot va xizmatlar haqida ma'lumot qidirishda ko'proq qidiruv tizimlari, ijtimoiy media, bloglar va sharh platformalariga murojaat qilmoqdalar hamda raqamli platformalar orqali mahsulotlarni baholash va taqqoslash imkoniyatiga ega bo'lib, bu ularning qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir qilmoqda. Albatta, bu onlayn xaridlar hajmini oshiradi, tanlov imkoniyatini kengaytiradi va narxlarni taqqoslashni osonlashtiradi.

Shuningdek, raqamli marketing brendlar bilan iste'molchilar o'rtasida ikki tomonlama aloqani o'rnatish imkoniyatini yaratadi. Ijtimoiy media, elektron pochta marketingi va chat-botlar orqali brendlar iste'molchilar bilan muloqot qilish, ularning savollariga javob berish va fikr-mulohazalarini olish imkoniyatiga ega.

Yuqoridagi omillar raqamli marketingning iste'molchi xulq-atvoriga ta'siri mavzusining dolzarbligini tasdiqlaydi. Raqamli marketingning roli tobora ortib borayotganligi sababli, bu sohani chuqur o'rganish va iste'molchilarning raqamli muhitdagi xatti-harakatlarini tushunish biznes muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli marketing va iste'molchi xulq-atvori mavzusi hozirgi kunda keng tadqiq qilinayotgan va izchil rivojlanayotgan sohalardan biridir. Iste'molchi xulq-atvori bo'yicha bir qator klassik olimlarning asarlari ushbu sohaning metodologik asoslarini belgilab bergan:

- Philip Kotlarning "Marketing Management" nomli asari ushbu sohaga oid eng asosiy manbalardan biri bo'lib, unda iste'molchi xulq-atvorini tushunish hamda marketing strategiyalarini ishlab chiqish muhimligi tahlil qilingan [4].

- Michael Porter "Competitive Advantage" asarida raqobatbardoshlikka erishish uchun iste'molchi ehtiyojlarini chuqur o'rganish zarurligini ta'kidlaydi [6].

- David Aakerning "Building Strong Brands" nomli ishi brend qiymatini shakllantirish, iste'molchi sodiqligini oshirish hamda brend shaxsiyati va iste'molchi idrokini tahlil qilishga bag'ishlangan [1].

Zamonaviy tadqiqotchilardan quyidagilar e'tiborga loyiq:

- Al Ries va Jack Trout tomonidan yozilgan "The 22 Immutable Laws of Marketing" asarida marketingning asosiy qonunlari, shu jumladan raqamli marketingdagi qonuniyatlar bayon etilgan [7].

- Brian Solisning "X: The Experience When Business Meets Design" asarida esa raqamli transformatsiya sharoitida iste'molchi tajribasining ahamiyati keng yoritilgan [2].

O'zbekistonlik tadqiqotchilar – J. Ergashxo'jayev, Sh. Narkulova [5], I. Ibragimov [3], D. Xolmamatov, B. Musayev, S. Boyjigitov [8] va boshqalar – raqamli marketingning iste'molchi xulq-atvoriga ta'sirini o'rganishga hissa qo'shganlar.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli marketing va iste'molchi xulq-atvori bo'yicha salmoqli ilmiy izlanishlar mavjud bo'lishiga qaramay, ayrim yo'nalishlar hali yetarli darajada o'rganilmagan. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Madaniy kontekstlar: Raqamli marketingning Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi kabi mintaqalardagi o'ziga xos jihatlari kamroq yoritilgan.



- Marketing vositalari kombinatsiyasi: Ijtimoiy tarmoqlar, mobil marketing, qidiruv tizimlari marketingi va boshqa vositalarning iste'molchi xulq-atvoriga ta'sirini kompleks o'rganishga ehtiyoj mavjud.
- Sun'iy intellekt (AI): Chatbotlar, shaxsiylashtirish tizimlari, prognozli tahlil kabi texnologiyalarning iste'molchilarga ta'sirini chuqur tahlil qilish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda iste'molchilarning raqamli marketing vositalariga munosabati, xarid qilish odatlari va brend haqidagi tasavvurlarini aniqlash maqsadida miqdoriy va sifatli metodlardan foydalanildi.

- Miqdoriy yondashuv: Statistik tahlillar orqali ma'lumotlar raqamlarga aylantirildi. So'rovnomalar orqali katta auditoriyadan ma'lumotlar yig'ildi.
- Sifatli yondashuv: Intervyular, fokus-guruhlar, kuzatuvlar va hujjatlar tahlili orqali iste'molchi xatti-harakatlarini chuqur tushunish, ma'nolarni aniqlash va nazariyalarni ishlab chiqishga xizmat qildi.
- Eksperiment usuli: Muayyan omillar (masalan, reklama) manipulyatsiya qilinib, boshqa omillarga (masalan, xarid qilish niyatiga) ta'siri o'rganildi.

TAHLIL NATIJALARI MUHOKAMASI

Mahsulotga talab yaratish, mijozlarni jalb qilish va maqsadli auditoriya bilan aloqada bo'lish uchun kompaniyalar marketing faoliyatiga ehtiyoj sezadilar. Marketing – bu biznesni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir. Amaldagi yondashuvlar, texnologiyalar va kanallar marketing turlarining xilma-xilligiga olib kelgan.

Raqamli marketing vositalari nafaqat iste'molchilar bilan aloqani mustahkamlashga, balki ularning xulq-atvorini tahlil qilish va prognoz qilishga ham xizmat qiladi. Onlayn platformalar orqali to'plangan ma'lumotlar asosida kompaniyalar aniqroq va samaraliroq marketing strategiyalarini ishlab chiqish imkoniga ega bo'ladilar.

Raqamli marketing – bu raqamli muhitda, ya'ni texnologiyalar va qurilmalardan foydalanilgan holda mahsulotlar, xizmatlar va brendlarni ilgari surish faoliyatidir. Raqamli texnologiyalar reklama jarayonini yanada aniq va o'lchovli qiladi. Ushbu vositalar orqali auditoriyangiz haqida batafsil ma'lumot to'plash, shuningdek, natijalarni obyektiv baholash imkoniyati yaratiladi.

Raqamli marketolog marketing strategiyasini ishlab chiqish, vositalarni tanlash va reklama kampaniyalarini o'tkazish uchun javobgardir. Uning vazifasi – tomoshabinlar bilan mavjud barcha aloqa nuqtalaridan foydalanish va turli media kanallari orqali mijozni xaridga yo'naltirishdir.

- Raqamli marketingning internet-marketingdan asosiy farqlari:
- Internet-marketing faqat onlayn reklama vositalarini o'z ichiga oladi. Ular quyidagilardan iborat:
- Veb-saytlarni qidiruv tizimiga moslashtirish (SEO);

Internetda reklama;

Ijtimoiy tarmoqlarda reklama (SMM);

Video marketing;

Elektron pochta va messenjerlar orqali yuboriladigan xabarlar.

Raqamli marketing esa yanada kengroq tushunchadir. U nafaqat barcha internet-kanallarni, balki raqamli media, texnologiyalar va qurilmalardan foydalangan holda oflayn reklama usullarini ham qamrab oladi. Masalan:

Interaktiv tashqi reklama;

SMS xabarnomalar;

Interaktiv jonli tadbirlar.

Internet marketologlar faqat onlayn kanallarda reklama bilan shug'ullanishsa, raqamli marketologlar internet makonidan tashqarida ham auditoriya bilan interaktiv aloqalarni yo'lga qo'yadilar.

Raqamli yondashuvning asosiy g'oyasi – savdo hunisining har bir bosqichida auditoriya haqida ma'lumot to'plash va ushbu ma'lumotlardan reklama samaradorligini oshirish uchun foydalanishdir. Texnologiyalar esa iste'molchi ma'lumotlarining aniqligi uchun javobgardir. Raqamli xizmatlar va vositalar mijozlarning xatti-harakatlarini hamda marketing xabarlariga munosabatini doimiy ravishda kuzatib boradi.

Raqamli reklamaniing imkoniyatlari:

Brend xabardorligini oshirish;

Onlayn va oflayn manbalardan trafikni jalb qilish;

Yetakchi xaridorlarni shakllantirish;

Kompaniya imijini yaratish;

Mahsulot qiymatini oshirish va xaridorlarni xabardor qilish orqali talabni yaratish;

Sotuvni kengaytirish: yangi auditoriyalarni jalb qilish va mavjud mijozlar bazasi bilan takroriy savdolarni rivojlantirish.



Ushbu ro'yxatdan ko'rinib turibdiki, raqamli marketingni qo'llash sohalari reklamaning an'anaviy yondashuvlariga o'xshash bo'lsa-da, raqamli strategiyani ishlab chiqishda marketolog muayyan o'ziga xos jihatlarni inobatga olishi zarur. Raqamli marketing tashqi muhit bilan integratsiyani, auditoriya bilan doimiy aloqada bo'lish uchun yagona platforma yaratishni ta'minlaydi.

I. Raqamli marketingning iste'molchi xulq-atvoriga ta'sir yo'nalishlari:

1. Axborot izlashga ta'siri:

Iste'molchilar mahsulot, xizmat va brendlar haqida ma'lumot qidirishda ko'proq qidiruv tizimlari, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va sharh platformalariga murojaat qiladilar. SEO va kontent marketing bu jarayonga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Qidiruv so'rovlari, kliklar ko'rsatkichi (CTR) va saytlarga tashriflar orqali foydalanuvchilarning qaysi turdagi ma'lumotlarga qiziqishi aniqlanadi.

2. Mahsulotlarni baholash va taqqoslash:

Iste'molchilar raqamli platformalar orqali mahsulotlarni baholash va solishtirish imkoniyatiga egalar. Onlayn sharhlar soni va sifati, brendlarning javob berish faoliyati, taqqoslash saytlari roli xarid qilish qarorlariga bevosita ta'sir qiladi. Sharhlarning ishonchligi va brend imijini boshqarish strategiyasi ishlab chiqiladi.

3. Elektron tijorat ta'siri:

Elektron tijorat rivojlanishi mahsulotlarni onlayn xarid qilishni soddalashtiradi va narxlarni solishtirishni osonlashtiradi. Veb-sayt dizayni, foydalanuvchanligi, to'lov tizimlari xilma-xilligi, yetkazib berish sifati va qaytarish siyosati iste'molchi xatti-harakatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

4. Ikki tomonlama aloqa va brendga ishonch:

Ijtimoiy media, email marketing va chatbotlar orqali brendlar mijozlar bilan bevosita muloqot olib boradi. Bu foydalanuvchi savollariga tezkor javob berish va fikr-mulohazalarni to'plash imkoniyatini beradi. Bu orqali sodiqlikni mustahkamlashga erishiladi.

5. Brendga sodiqlikni shakllantirish:

Loyihalar, chegirmalar, eksklyuziv takliflar va shaxsiylashtirilgan xizmatlar mijozlarning brendga bo'lgan sadoqatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Takliflardan foydalanish chastotasini aniqlash va shaxsiylashtirish strategiyasini ishlab chiqish sodiqlik darajasini oshiradi.

Raqamli marketingning O'zbekistondagi iste'molchi xulq-atvoriga ta'sirini statistik ko'rsatkichlar tahlili orqali quyidagi misollar bilan izohlash mumkin. 2024-yil boshidagi holatga ko'ra, O'zbekistonda 29,52 million internet foydalanuvchisi mavjud bo'lib, internetga kirish darajasi umumiy aholining 83,3 foizini tashkil qilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2023-yil yanvar – 2024-yil yanvar oralig'ida O'zbekistonda internet foydalanuvchilari soni 436 ming nafarga (+1,5 %) oshgan [9].

2024-yil yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda 8,70 million ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi mavjud bo'lib, bu umumiy aholining 24,6 foizini tashkil etadi. 2023-yil boshidan 2024-yil boshigacha ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni 4,5 millionga (+107 %) ortgan. Shuningdek, 2024-yil boshida 18 va undan katta yoshdagi foydalanuvchilar soni 7,50 millionni tashkil etgan bo'lib, bu o'sha vaqtdagi shu yosh toifasidagi aholining 32,6 foiziga teng. Bundan tashqari, 2024-yil yanvar oyida internet foydalanuvchilarining 29,5 foizi (yoshidan qat'i nazar) kamida bir ijtimoiy media platformasidan foydalangan. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining 37,0 foizi ayollar, 63,0 foizi erkaklar hissasiga to'g'ri kelgan [9].

O'zbekistonda eng ommabop ijtimoiy media platformalari sifatida Telegram, Instagram va Facebook tarmoqlari ajralib turadi. Ushbu platformalarning keng tarqalganligi marketing kampaniyalarini maqsadli auditoriyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2024-yil boshida O'zbekistonda Facebook foydalanuvchilari soni 2,15 million kishini tashkil qilgan. 2023-yil yanvar – 2024-yil yanvar oralig'ida Facebook reklamalari orqali qamrab olinadigan potentsial auditoriya 500 mingga (+30,3 %) oshgan. Biroq, zamonaviy kontekstda 2023-yil oktabr – 2024-yil yanvar oralig'ida ushbu qamrov 50 mingga (-2,3 %) kamaygan.

O'zbekistonda elektron tijorat hajmi 2023-yilda 500 million AQSh dollaridan oshgan va o'sish tendensiyasi davom etmoqda (Manba: O'zbekiston Elektron Tijorat Assotsiatsiyasi) [10]. Bu esa iste'molchilarning xarid qilish odatlarida tub o'zgarishlar yuz berayotganidan dalolat beradi.

2023-yilda onlayn xarid qiluvchilar soni 5 milliondan oshgan. Bu esa raqamli marketingning xaridorlarni jalb qilishdagi roli ortib borayotganini ko'rsatadi. Onlayn xaridning o'rtacha cheki 50 AQSh dollarini tashkil etmoqda, bu esa iste'molchilarning onlayn xaridlarga bo'lgan ishonchi oshayotganini tasdiqlaydi.

Raqamli reklama uchun ajratilgan mablag'lar 2023-yilda 100 million AQSh dollaridan oshdi. Bu ko'rsatkich brendlar e'tiborining raqamli marketing tomon kuchayganligini ko'rsatadi. Eng ommabop raqamli reklama formatlari sifatida ijtimoiy media reklamasi (50 %), qidiruv tizimi reklamasi (30 %), va banner reklamasi (20 %) ajralib turadi. Bu raqamlar ijtimoiy media platformalarining reklama strategiyalaridagi yetakchi rolini ko'rsatadi [10].



Google qidiruv tizimidagi eng ko'p izlanadigan mahsulotlar: kiyim-kechak, elektronika va maishiy texnika sanaladi. Iste'molchilarning qaysi mahsulotlarga qiziqishini aniqlash SEO strategiyalarini optimallashtirishda muhim omildir.

Iste'molchilarning 70 foizi onlayn xarid qilishdan oldin sharhlarni o'qib chiqadi. Shu bois, brend tahlillari va foydalanuvchi fikrlarining xarid qarorlariga ta'sirini baholash zarurdir.

Onlayn xaridlarning 60 foizi mobil qurilmalar orqali amalga oshiriladi. Bu esa mobil qurilmalar uchun moslashtirilgan veb-sayt va ilovalarni ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston misolida raqamli marketingning iste'molchi xulq-atvoriga ta'sirini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, internetdan foydalanishning yuqori darajasi, ijtimoiy media platformalarining ommaviyligi, elektron tijoratning jadal rivojlanishi hamda mobil marketing vositalarining keng qo'llanilishi raqamli marketingning iste'molchilarga ta'sirini keskin oshirmoqda. Shu bilan birga, brendlar raqamli marketing strategiyalariga tobora katta e'tibor qaratmoqda hamda moliyaviy resurslar ajratilmoqda. Aholining mobil qurilmalardan faol foydalanayotgani esa, mobil marketingning samaradorligini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari raqamli marketing vositalarining, xususan ijtimoiy media reklamalari orqali berilgan kontent va mashhur shaxslar ishtirokidagi reklamalarning ayniqsa yoshlarda xarid qilish niyatini kuchaytirishini tasdiqlaydi. Ushbu holat marketing nazariyasiga yangi konsepsiyalarni olib kiradi va brendlar uchun yosh auditoriyaga yo'naltirilgan samarali reklama strategiyalarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot asosida quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Marketing strategiyalarini iste'molchi xulq-atvoridagi o'zgarishlarga moslashtirish – iste'molchilar ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish asosida shaxsiylashtirilgan raqamli marketing yondashuvlarini ishlab chiqish lozim.

Ijtimoiy media vositalaridan samarali foydalanish – brend imidjini yaratish, iste'molchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatish va mahsulotlarni targ'ib qilish uchun ijtimoiy media platformalari strategik vosita sifatida ishlatilishi kerak.

Iste'molchilar haqidagi ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish – foydalanuvchi ma'lumotlarini tahlil qilish orqali marketing kampaniyalarini optimallashtirish, reklama samaradorligini oshirish mumkin.

Etik tamoyillarga qat'iy rioya qilish – shaffoflik, shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi va iste'molchi huquqlarining hurmat qilinishi raqamli marketingning asosiy etik standartlari bo'lishi lozim.

Iste'molchi huquqlarini himoya qilish bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish – raqamli marketing sohasida iste'molchilarning manfaatlarini qonuniy asosda himoya qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi kerak.

Raqamli savodxonlikni oshirish – aholining raqamli savodxonligini oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlari va targ'ibot ishlari amalga oshirilishi lozim.

Raqamli reklama standartlarini ishlab chiqish – etik va qonuniy normalarga mos keluvchi reklama standartlari belgilanib, ularning ijrosi ta'minlanishi zarur.

Yangi texnologiyalarning iste'molchi xulq-atvoriga ta'sirini o'rganish – sun'iy intellekt, kengaytirilgan va virtual reallik vositalarining marketing jarayonlariga integratsiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilishi lozim.

Madaniy farqlarni hisobga olish – turli madaniyatlar va regionlardagi iste'molchilarning raqamli marketingga bo'lgan munosabatini chuqur o'rganish orqali lokal strategiyalar ishlab chiqilishi kerak.

Iste'molchi sadoqati va brend imidjining uzoq muddatli ta'sirini baholash – marketing natijalarini uzoq muddatli nuqtai nazardan monitoring qilish, sotib olish odatlariga uzoq muddatli ta'sirni aniqlash muhimdir.

Kvalitativ tadqiqotlarni kengaytirish – iste'molchilarning motivatsiyasi, qaror qabul qilish mexanizmlari va raqamli marketing haqidagi qarashlarini chuqur o'rganish maqsadida intervyu, fokus-guruhlar va boshqa sifatli tadqiqot metodlari qo'llanilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, raqamli marketingning iste'molchi xulq-atvoriga ta'siri doimiy ravishda o'zgarib bormoqda. Shu sababli, bu sohadagi tadqiqotlar doimo dolzarb bo'lib qoladi. Brendlar va marketing mutaxassislari iste'molchilarning ehtiyojlari va xatti-harakatlaridagi o'zgarishlarni muntazam tahlil qilib borishlari, o'z strategiyalarini shunga mos ravishda moslashtirishlari zarur. Xususan, O'zbekistondagi kompaniyalar raqamli marketing strategiyalarini mahalliy auditoriya ehtiyojlari va xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqishlari, ijtimoiy media marketingi, mobil marketing va SEO strategiyalariga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Shuningdek, iste'molchilar bilan samarali aloqa o'rnatish, fikr-mulohazalarni yig'ish va ularga tezkor javob qaytarish, elektron tijorat platformalarini optimallashtirish, to'lov tizimlari xavfsizligini ta'minlash hamda yetkazib berish xizmatlarini takomillashtirish zarurdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Аакер, Д. А. Создание сильных брендов / Дэвид А. Аакер; пер. с англ. С. А. Старов, Д. Л. Волков, Т. Л. Клемина, А. Л. Загорский. – Москва: ИД Гребенникова, 2003. – 440 с. – Примеч. – Предм. указ.: с. 425–435.
2. Solis, B. X: The Experience When Business Meets Design. – John Wiley & Sons Inc., 2015. – 254 p.
3. Ибрагимов, И. О. Поведение потребителей: Учебное пособие. – Самарканд: СамИЭС, издательство ООО «STAR-SEL», 2023. – 288 с.
4. Котлер, Ф. Маркетинг менеджмент. Экспресс-курс: 2-е изд. / Пер. с англ. под ред. С. Г. Божук. – СПб.: Питер, 2006. – 464 с. – (Серия «Деловой бестселлер»).
5. Narkulova, Sh. Sh. Consumer Behaviour: Textbook. – Samarkand: SamIES, “STAR-SELL” LLC editorial office, 2022. – 394 p.
6. Портер, М. Конкурентное преимущество: Как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость / Майкл Портер; пер. с англ. – 6-е изд. – М.: Альпина Паблишер, 2018. – 716 с.
7. Райс, Э., Траут, Д. 22 непреложных закона маркетинга. – М.: АСТ, 2005. – 160 с.
8. Холмаматов, Д.Х., Мусаев, Б.Ш., Наркулова, Ш.Ш., Бойжигитов, С.Қ. Internet marketing: O'quv qo'llanma. – Samarqand: “Fan Bulo’ji” nashriyoti, 2022. – 232 b.
9. DataReportal. <https://datareportal.com/reports/digital-2024-uzbekistan>
10. IT Alliance Uzbekistan. <https://italliance.uz/ru/associatsiya-elektronnoy-kommercii-uzbekistana-stala-nashim-strategicheskim-partnerom/>
- 11.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>